

---

## Fotolavha: 46-Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi jajji bolajonlar "Mehrjon" hosil bayramini nishonlashdi

Har bir faslning o'zgacha gashti bor. Fasllar orasida ayniqsa kuzning o'zgacha tarovati bor. Shunday go'zal va saxovatli kuzning so'nggi kunlarida Qo'shtepa tumanidagi 46-Maktabgacha ta'lim tashkilotida ham "Mehrjon" hosil bayrami ko'tarinki kayfiyatda nishonlandi.

Ushbu bayram tadbirida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari D.Xoliqov hamda muassasaning mas'ullari, tarbiyachilari va tarbiyalanuvchilar ishtirok etishdi.

Barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashgan tadbirda tarbiyachilar hamda tarbiyalanuvchilar birdek ishtirok etishdi. Tadbirda kuz fasliga bag'ishlangan teatrlashgan sahna ko'rinishlari namoyish etilib, bolajonlar o'zlarining sho'x kuy-qo'shiqlari, yod olgan she'r hamda raqslarini ijro etishdi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz tabiatidagi bag'rikenglik, mehmondo'stlik, mehr-shafqat, saxovatlilik kabi go'zal fazilatlarining davom etishida ushbu bayramning hissasi juda katta bo'ldi.



















































2024-11-27 13:49:05